



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



INTI
International
University & Colleges

**HERIOT
WATT**
UNIVERSITY
UK | DUBAI | MALAYSIA

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O‘ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
“QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEXNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGIDAGI
O‘RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMANI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

29-30-aprel, 2025-yil

ISSN: 978-9910-10-082-6
UO‘K 556.182:551.5(08)
BBK 26.222+26.236
«DURDONA» Nashriyoti

“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo‘jaligidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to‘plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Imomov Shavkat Jaxonovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.
BOSH MUHARRIR:
Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.
MUHARRIR:
Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich –“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasini mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.
TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:
Ibragimov Ilhom Ahrorovich -texnika fanlari doktori, dotsent
Jo‘rayev Umid Anvarovich -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
Rajabov Yarash Jabborovich -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Laamarti Yuliya Aleksandrovna - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Marasulov Abdirahim Mustafoevich - texnika fanlari doktori, professor.
Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich -fizika-matematika fanlari doktori, professor
Boltayev Zafar Ixtiyorovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor
To‘xtayeva Habiba Toshevna -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.
Safarov Tolib Tojiyevich -tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Boltayev San‘at Axmedovich -texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Jamolov Farxod Norkulovich - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Barnayeva Muniraxon Abdurafofva - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).
© Mualliflar
Elektron pochta manzili: buxtimi@mail.ru

CHET TILI FANLARIDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna

Buxoro Davlat Texnika Universiteti "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: mbozorova20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida ekologik ta'lim va tarbiyaning muhim o'rin egallashi, hamda ularni shakllantirishda zaruriy bilimlar keltirib o'tilgan. Unda ekologik ta'lim tarbiya nimalarni o'z ichiga olishi, qanday masaslalar borligi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birgalikda ekologik ta'lim tarbiyaning vazilalariga ham to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Kalit so'zlar: talabalar, ekologik ta'lim va tarbiyani shakllantirish, tabiat muxofazasi, ekologik madaniyatni tarbiyalash, ekologik xavfsizlik.

Abstract: This article discusses the important place of environmental education and upbringing in the minds of the growing younger generation, as well as the necessary knowledge for their formation. It examines what environmental education and upbringing includes, what issues there are. At the same time, we found it necessary to touch upon the functions of environmental education and upbringing.

Keywords: students, formation of environmental education and upbringing, nature protection, upbringing of ecological culture, ecological safety.

Аннотация: В статье рассматривается важная роль экологического образования и воспитания в сознании подрастающего молодого поколения, а также знания, необходимые для их формирования. В нем рассматривается, что включает в себя экологическое образование и какие проблемы оно решает. В то же время мы сочли необходимым затронуть тему преимуществ экологического образования.

Ключевые слова: учащиеся, формирование экологического образования и воспитания, охрана природы, воспитание экологической культуры, экологическая безопасность.

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb, hammani to'ldirayotgan muammolardan biridir. O'tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. **"Ekologiya"** atamasi grekcha so'z bo'lib, "aykos"- "yashash joyi", "makoni", "logos"- "ta'limot" degan ma'noni bildiradi. **"Ekologiya"** atamasi birinchi marta nemis olimi **Ernest Gekkel** tomonidan 1866 yilda qo'llanilgan. U "ekologiya – bu tabiat iqtisodiyotini bilish, bir vaqtning o'zida tirik organizmlarning muhitni organik va noorganik komponentlari bilan bo'lgan barcha munosabatlarni tadqiq qilishdir", deb ta'rif bergan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: O'zbekistonda ekologiya, tabiatdan foydalanish, atrof-muhit muhofazasi va barqaror taraqqiyot bilan bog'liq muammolar o'z yechimini kutayotgan birinchi darajali muammolar sifatida e'tirof etildi va qalbida imoni bo'lgan barcha insonlarni amaliy hatti-harakatga chorladi, shijoat va g'ayrat bilan olg'a yurishga ilhomlantirdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta'lim turlarida uzluksiz ekologik ta'lim tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida barcha darajalardagi ta'lim o'quv dasturlariga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarini kiritish orqali uzluksiz ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish, xususan, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish masalalarini ta'limning barcha bosqichidagi o'quv dasturlariga joriy etish, ekologik muammolarni va tabiatdan to'g'ri foydalanish zaruratini yanada chuqur anglab yetishga yordam beruvchi ekologiya bo'yicha yangi umumta'lim va maxsus o'quv rejalari (dasturlari) ni joriy etish va mavjudlarini yaxshilash chora-tadbirlarida aniq vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, shu yilning 26 martidan boshlangan "Yashil makon" loyihasi doirasida o'tkazilayotgan "Dolzarb 40 kunlik"da yurtimizning barcha hududlari qatori biz faoliyat olib borayotgan oliygohimiz hududida ham manzarali gul va daraxt ko'chatlarini o'tkazish ishlari olib borildi.

Mamlakatimizda uzluksiz ekologik ta'lim tizimini samarali yo'lga qo'yish orqali aholining, jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish mumkin. Gap shundaki, aholining, birinchi navbatda, uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchi va talaba yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirmasdan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasiga sarflanayotgan har qancha mablag'lar bilan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yosh avlod qalbida Ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissi o'z vaqtida tarbiyalashimiz lozim. Hozirda Yer yuzida global, regional va mahalliy ekologik muammolar vujudga kelganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarurdir. Jumladan, global iqlim o'zgarishi, cho'llanish, Orol dengizi muammosi va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Mavjud ekologik muammolarning yechimini topish, bartaraf etish yo'llarni ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ekologik tendentsiyalarni kuzatib borish va shu asosda ijobiy xulosalar chiqarish talab etiladi. Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molik vazifa bo'lib, hozirgi vaqtda mamlakatimiz tabiiy boyliklarini saqlab qolish va ularni kelajak avlodga yetkazish muhim masalalardan biridir. Tabiat bilan inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi, bu munosabatlar odamlarning ekologik madaniyatiga bog'liqdir. Tabiat qonuniyatlarini buzish, o'nglab bo'lmas ekologik falokatga olib kelishi muqarrardir. Misol tariqasida Sobiq Ittifoq davridagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, eng avvalo tayyor mahsulot emas, balki, qishloq xo'jalik xom-ashyosin ko'paytirish manfaatlarini ko'zlagan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga zid tadbirlar, oxir-oqibatda, Orol dengizi va Orolbo'yi ekologik inqiroziga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim va tarbiyani ekologiyalashtirish O'zbekistonga nisbatan barvaqt boshlangan. Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarida atrof- muhitni muhofaza qilish strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillarida to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat e'tibori kuchaytirildi. Yangicha yondashuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikka turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir. Ekologik ta'lim va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o'z o'lkasi va vatanining ekologik tizimlari, ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan xususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi, ularni tanlagan kasblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ekologik amaliyot – yuksak ekologik ma'naviyatli va ma'rifatli shaxs imkoniyatini uning hayot va mehnat faoliyatida qo'llay olishning motivatsiyalanganlik darajasi. Ya'ni ekologik ong va madaniyatni hayotiy faoliyatda nechoqlik zarur ekanligini his etish va uning ijobiy natijalaridan bahramand bo'la olish sharoitining muayyan ma'muriy boshqaruv birliklar yoki iqtisodiyot tarmoqlari doirasida yaratilganligi. U davlat, jamiyat va korporativ uyushmalarning olib borayotgan ekologik konsepsiyasida, siyosatida, qonunchiligida, harakatlar dasturi va ish rejalarida, prioritet tadqiqotlar yo'nalishlarida, kadrlar tayyorlash va ularni amalda tatbiq etilganligida namoyon bo'ladi. Ekologik ta'lim, tarbiya va amaliyot mohiyati uning uch yo'nalishdagi tadqiqot qilish, o'rgatish va amalga joriy etish predmetida o'z aksini topadi: ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o'zgargan) muhofaza qilish; ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish; buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash. Ekologiya ning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ekotizimlar xavfsizligiga erishish uchun ekologik ta'lim, tarbiya va amaliyot birligini ta'minlash. Ushbu maqsadga erishmoq uchun milliy miqyosda quyidagi ekologik tuzdagi vazifalarni bajarish talab etiladi: ekologiya ning umume'tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollarini turli ekotizimlar doirasida uzviy bog'langan holda baholash; ekologik konsepsiya va harakatlar dasturini ishlab chiqish; taktik va strategik ekologik rivojlanish rejalarini qabul qilish; ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish; ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish

va uni amaliyot bilan bog'lash mexanizmini yaratish; milliy ekologik ta'limning majburiylik prinsipini amalda qo'llash; ekologik ta'limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatining kelajagiga, tabiiy boyliklarini saqlab qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo'lib kelgan". Davlat siyosatiga monand ravishda ekologik ta'lim ham kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, Insonlar ma'naviyatiga yomon ta'sir etadigan ba'zi bir fazilatlar – manmanlik, qo'l uchida salom berish, boshini viqor ila baland tutib yurish, mensimaslik, balandparvozlik bilan buyruq berish kabilar oadmlarda rahbarga bo'lgan ishonchni yo'qota boradi. Insondagi yaxshi sifat va fazilatlar asosan oilada va ta'lim tarbiya maskanlarda yaratiladi. Ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ta'limda ijtimoiy muhit sog'lom bo'lsa, talabalarning ijtimoiy sifati, tayyorgarlik darajasi va bilimi ham yuqori bo'ladi. Tabiat va jamiyat bir butundir. Ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi davlat siyosati darjasida qaraladi. Sohaga oid ko'plab qonun, qarorlar va kontseptsiya ishlab chiqilgan va davlat dasturi qabul qilingan. Ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik rivojlanish barqaror taraqqiyotni ta'minlab beradigan uchta asosiy yo'nalishlardir. Barqaror taraqqiyotga erishish sohalarda qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Ekologiya sohasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi barqaror rivojlanishning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, 2003.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. – T.: 2010.- 149 b.
3. Usmonov B.Sh., Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. "Ta'lim, fan va ishlab chiqarish innovatsion korporativ hamkorlik. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2017 y
4. Shodimetov. Yu. Ijtimoiy ekologiya. (darslik). Toshkent. 2003 y
5. Nazarov M. Ekologiya fanidan xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan yangi texnologik va pedagogik texnologiyalar.

ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЭКОЛОГИИ: МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ В СИСТЕМЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК

*Мирханова Матлюба Садыковна
преподаватель Бухарского государственного технического университета*

Аннотация: В статье рассматривается теория и методика обучения экологии как междисциплинарная область, находящаяся на стыке экологии, педагогики и психологии. Особое внимание уделяется значению экологического знания в формировании научного мировоззрения и устойчивого мышления студентов. Отражены ключевые аспекты экологической науки, её структура, направления и влияние на образовательный процесс. Подчёркивается методологическая роль экологии как интегративной науки, оказывающей существенное влияние на обновление содержания образования и переориентацию его целей.

Ключевые слова: экологическое образование, теория и методика, педагогика, экология, устойчивое развитие, профессиональная компетентность, интеграция наук

Annotatsiya. Maqolada ekologiyani o'qitish nazariyasi va metodikasi ekologiya, pedagogika va psixologiya sohalari kesishuvida joylashgan multitarmaq yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Ekologik bilimning talabalarida ilmiy dunyoqarash va barqaror tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Ekologik fanning asosiy jihatlari, tuzilishi, yo'nalishlari va ta'lim jarayoniga ta'siri yoritilgan. Ekologiya fanining integrativ ilm sifatidagi metodologik roli, ya'ni ta'lim mazmunini yangilash va uning maqsadlarini qayta yo'naltirishga ta'siri ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, nazariya va metodika, pedagogika, ekologiya, barqaror rivojlanish, professional kompetentlik, fanlar integratsiyasi